

IJTIMOY HIMOYA TIZIMLARINING JAHON TAJRIBASI

F. A. Kidjayeva¹

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

KEYWORDS

ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, Skandinaviya modeli, Bismark modeli, Beveredj modeli, iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligi, ijtimoiy xizmatlar, davlat mablag'lari, xususiy sektor.

ABSTRACT

Ushbu maqola aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining ahamiyati va rivojlanishi masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Jahon tajribasiga asoslanib, ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini oshirish uchun uchta asosiy model — Skandinaviya, Bismark va Beveredj modellarini tahlil qiladi. Skandinaviya modeli davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlashni, Bismark modeli esa xususiy sektor va ish beruvchilarning rolini ta'kidlaydi. Beveredj modeli esa davlat mablag'lari hisobiga ijtimoiy xizmatlarga teng kirishni ta'minlaydi. Maqolada har bir modelning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilib, ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish yo'nalishlari va ijtimoiy adolatni ta'minlashda ularning ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik va aholi ehtiyojlariga mos ravishda ijtimoiy himoya tizimlarining samarali tashkil etilishi zarurligi ta'kidlanadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15185156**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilishning keng qamrovli tizimini yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning zamirida bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan salbiy ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, ularning ta'sirini kamaytirish va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish yotadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va milliy davlatlar uchun ustuvor yo'nalish sifatida aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarini aniqlash va ularga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI Mazkur mavzu bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, ijtimoiy himoya tizimlarining rivojlanishi va

¹ Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

ularni qo'llash amaliyoti bo'yicha BMT, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar mavjud. Ushbu manbalarda ijtimoiy xavfsizlik, aholining himoyasiz qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va qashshoqlik darajasini kamaytirishga qaratilgan turli strategiyalar o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijtimoiy himoya tizimlari bo'yicha turli davlatlarning tajribasini qiyosiy tahlil qilish va ularning samaradorlik darajasini baholash usullari qo'llanildi. Birinchi bosqichda xalqaro tashkilotlar – xususan, BMT, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar hamda ilg'or davlatlarning ijtimoiy himoya tizimlari bo'yicha chop etilgan ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Keyingi bosqichda rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy himoya tizimlarini o'zaro solishtirish usuli qo'llanildi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida statistik tahlil va ekspert fikrlari asosida ma'lumotlar tahlil qilindi va umumiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi shakllanishiga alohida e'tibor berildi. Ushbu davrda, ilk kapitalizmning jamiyatning ijtimoiy hayotiga ta'sirini yumshatish va bartaraf etish maqsadida, cherkov va hayriya tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarining yetarli bo'lmaganligi sababli, davlat aholi oldida ijtimoiy majburiyatlarini bajarish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. XIX asr oxirida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada rivojlanib, uning faoliyatida ijtimoiy sug'urta xizmatlaridan foydalanishga katta ahamiyat berildi va pensiya tizimi birlashish tamoyiliga asoslangan moliyalash mexanizmi keng joriy qilindi. XXI asr boshlarida yuz bergan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini o'rganish iqtisodiy adabiyotda aholi farovonligini ta'minlash va ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini kuchaytirish yo'nalishlarida faol faoliyat ko'rsatdi.

Ijtimoiy himoya tizimlari – bu davlat tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Jahon tajribasida turli mamlakatlar ijtimoiy himoyani samarali tashkil qilish uchun o'zlarining o'ziga xos yondashuvlarini ishlab chiqqanlar. Bu tizimlar orasida pensiya, ishsizlikdan sug'urta, tibbiy yordam, aholini daromad bilan ta'minlash kabi turli xizmatlar mavjud. U tartibga solingan tizim sifatida dunyoning ko'plab mamlakatlarida mavjud. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya milliy iqtisodiyotning eng muhim qismidir va uning xarajatlari bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning chorakdan ko'proq qismini tashkil etadi.

Jahon tajribasida ijtimoiy himoya modellarining quyidagi turlari mavjud:

1. Skandinaviya modeli. Skandinaviya mamlakatlari (Shvesiya, Norvegiya, Daniya) ijtimoiy himoya tizimlarida davlat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratadi. Bu davlatlarda ijtimoiy xizmatlar byudjet hisobidan moliyalashtiriladi, fuqarolarga keng qamrovli ijtimoiy kafolatlar taklif etiladi. Bu modelda davlatning ijtimoiy himoya tizimiga yuqori darajadagi investisiyalari mavjud bo'lib, bu aholining barcha qatlamlariga qulaylik yaratadi. Biroq, bu tizimni qo'llash uchun davlat byudjeti va iqtisodiy barqarorlikning yuqori darajada bo'lishi talab etiladi.

2. Bismark modeli. Germaniya va Fransiya kabi Evropa mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimi asosan ish beruvchi va ishchi-xodimlar hissasidan to'lanadigan badallar hisobiga moliyalashtiriladi. Bu modelda himoya qilish tizimi ish faoliyatiga bog'liqdir va unda sug'urta jamg'armalari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bismark modeli asosan ish beruvchilar va ishchi-xodimlar tomonidan moliyalashtiriladigan tizimdir.

3. Beveredj modeli. Buyuk Britaniyada ijtimoiy himoya davlat byudjetiga asoslangan. Bu modelda hamma aholi davlatning ijtimoiy himoya xizmatlaridan teng foydalanish huquqiga ega. Beveredj modelida aholining barcha qatlamlari davlat ijtimoiy himoya tizimi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

Davlat byudjetiga asoslangan modellar (Skandinaviya va Beveredj modellari) yuqori iqtisodiy barqarorlikni talab qiladi. Sug'urtaga asoslangan modellar (Bismark modeli) ko'proq xususiy sektor rivojlangan mamlakatlarda samarali hisoblanadi.

Modellarning har biri aholining turli qatlamlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Skandinaviya modeli aholining har bir qatlami uchun teng imkoniyatlarni yaratadi, shu bilan birga, ijtimoiy farovonlik darajasini oshiradi. Bismark modeli ko'proq ish faoliyatiga bog'langan bo'lib, bu model ishsizlik darajasini pasaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda foyda beradi. Beveredj modeli davlat mablag'lari hisobiga moliyalashtirilib, barcha fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarga teng kirishini ta'minlaydi. Bu model kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

1-jadval

Ijtimoiy himoya tizimiga sarflanadigan YaIM ulushi (%)

Mamlakat	Aholini qamrab olish darajasi (%)	Ijtimoiy himoya xarajatlari (% YaIM)
Shvesiya	95%	29%
Germaniya	88%	27%
Yaponiya	78%	22%
AQSh	74%	19%

Manba: <https://www.worldbank.org>, <https://ec.europa.eu>, <https://www.statista.com> statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Skandinaviya davlatlari misolida (Shvesiya) ijtimoiy himoya tizimiga ajratiladigan YaIM ulushi juda yuqori — 29%, va bu bilan aholining 95% qamrab olinadi. Bu yuqori darajadagi qamrab olish darajasi aholining barcha qatlamlari davlat yordamiga ega ekanligini va ijtimoiy himoya tizimi keng imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi (1-jadval).

Germaniya kabi Bismark modelini qo'llagan mamlakatlarda YaIM ulushi 27% ni tashkil etadi va aholining 88% ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinadi. Germaniyada ijtimoiy sug'urta tizimi ish beruvchi va ishchi-xodimlarning badallari hisobidan moliyalashtiriladi, bu esa tizimning samaradorligini ta'minlaydi.

Yaponiya va AQSh kabi mamlakatlarda ijtimoiy himoya uchun ajratilgan YaIM ulushi pastroq (Yaponiyada 22%, AQShda 19%), va shu sababli qamrab olish darajasi ham pastroq

— Yaponiyada 78%, AQShda 74%. Bu mamlakatlarda davlat ijtimoiy himoya dasturlarini to'liq qo'llab-quvvatlamaydi, sug'urta va shaxsiy mablag'larga tayanadi, shuning uchun faqat ma'lum qatlamlargina ijtimoiy himoya xizmatlaridan foydalanadi.

Aholini kambag'allikdan chiqarish va axolini manzilli ijtimoiy himoya qilishda, aholining real daromadlarini va real o'sish sur'atlarini to'g'ri baholashimiz lozim.

“Turmush sifatini oshirish aholining aksariyat qismi manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan davlatning strategik maqsadidir. YaIMning o'sishi esa, bu strategik maqsadga erishish vositasidan boshqa narsa emas”². Nazariy ma'lumotlarga ko'ra, turmush darajasini belgilashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti konsepsiyasi, shved va fransuz modellari farqlanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi. Jamiyat rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash aholi turmush darajasini oshirish kabi vazifalar bajariladi (2-jadval)

2-jadval

Aholi turmush darajasini aniqlash ko'rsatkichlari³

No	BMT konsepsiyasi	Shved modeli	Fransuz modeli
1.	Inson huquqlari	Iqtisodiy imkoniyatlar	Daromadlarning jamg'armalarga taqsimlanishi va ulardan foydalanish
2.	Sihat-salomatlik	Ijtimoiy imkoniyatlar	Turmush darajasining ijtimoiy jihatlari
3.	Oziq-ovqat iste'moli	Siyosiy imkoniyatlar	Faoliyat ko'rsatish sharoitlari
4.	Ta'lim	Sog'liqni saqlash va tibbiy yordamdan foydalanish	Aholi soni va tarkibi
5.	Ish bilan bandlik va mehnat sharoiti	Bo'sh vaqt va uni o'tkazish	Mehnat resurslari va mehnat sharoiti
6.	Ijtimoiy himoya va pensiya ta'minoti	Iste'mol	
7.	Uy-joy sharoiti	Maktab ta'limi	
8.	Kiyim-kechak	Mehnat va mehnat sharoiti	
9.	Dam olish va bo'sh vaqt	Uy-joy	

² Инсон тараққиёти. Дарслик. /И.ф.д., проф. Абдурахмонов Қ.Х. таҳрири остида. – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 102-б.

³ <https://library.ziyounet.uz/book/134406>

Ijtimoiy himoya davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy kafolatlar yig'indisini tashkil etadi. "Ijtimoiy himoyaning asosiy vazifasi ijtimoiy qiyin ahvolda qolgan aholi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish yoki kutilayotgan moddiy qiyinchiliklar haqida ogohlantirishdan iboratdir. Shuningdek, ijtimoiy himoya masalalariga davlatimizning ustuvor vazifalari sifatida alohida ahamiyat beriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimlarini sama-rali tashkil etish uchun har bir mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari va aholining ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Har bir modelning o'ziga xos ustun va kamchiliklari bor, lekin ularning barchasi aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Har bir fuqaroning qamrab oluvchi puxta ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi nafaqat ularning farovonligini yaxshilaydi, balki mamlakatning mehnat resurslarini kengaytiradi va mustahkamlashiga ham yordam beradi, shuningdek, iqtisodiy o'sishga va mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatning barqarorligiga xizmat qiladi. Shu tariqa, ijtimoiy himoya jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy kelishuvni rivojlantiradi va uning a'zolari o'rtasida umumiy ijtimoiy himoya hissini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Воронцова, М. В. Социальная защита и социальное обслуживание населения: учебник для вузов / М. В. Воронцова, В. Е. Макаров ; под редакцией М. В. Воронцовой. — Москва : Издательство Юрайт, 2020
2. <https://www.worldbank.org>. OECD, "Social Expenditure Database (SOCX)" 2023
3. <https://ec.europa.eu/> "Social Protection Statistics," 2023
4. <https://www.statista.com/statistics/Japan> Statistics Bureau, "Social Security Expenditure," 2022
5. <https://www.developmentpathways>. World Bank, "Social Protection Expenditure and Population Coverage" Report, 2023